

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

ERKAYEV MA’MURJON RAXMONBERDIYEVICH

**BURHONIDDIN MAHMUD BUXORIYNING “MUHITUL BURHONIY”
ASARIDA IJARA SHARTNOMALARI**

24.00.03 – Fiqh, kalom ilmi. Ilohiyot

**ISLOM SHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

**Islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on islamic sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по исламоведческим наукам**

Erkayev Ma‘murjon Raxmonberdiyevich

Burhoniddin Mahmud Buxoriyning “Muhitul Burhoni” asarida ijara
shartnomalari..... 3

Erkaev Mamurjon Rakhmonberdiyevich

Lease contracts in “Muhitul Burhani” by Burhoniddin Mahmud Bukhari..... 23

Эркаев Мамурджон Рахмонбердиевич

Договоры аренды в произведении «Мухитул-Бурхани» Бурханиддина
Махмуда Бухари..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works
Список опубликованных работ..... 48

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

ERKAYEV MA’MURJON RAXMONBERDIYEVICH

**BURHONIDDIN MAHMUD BUXORIYNING “MUHITUL BURHONIY”
ASARIDA IJARA SHARTNOMALARI**

24.00.03 – Fiqh, kalom ilmi. Ilohiyot

**ISLOM SHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Isl.50 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasining www.iiu.uz hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Bekmirzayev Ihomjon Isroiljonovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlari doktori, professor

Ishandjanov Baxtiyor Ihomovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Sharqshunoslik institute**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «___» may soat ___ dagi onlayn/offlayn majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (99871) 2440056; faks: (99871) 2440065; e-mail: info@iiu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (154-raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (99871) 2440056; faks: (99871) 2440065; e-mail: info@iiu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» aprelda tarqatildi.
(2024-yil 18 apreldagi 04-raqamli reestr bayonnomasi.)

D.R. Maxsudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlar doktori, professor

S.A. Rustamiy

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

Z.M. Islomov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tarixida islom huquqining muhim mavzularidan hisoblangan “ijara” (عقد الإجارة) musulmon mamlakatlarida zamonaviy shartnomalarga ham singib ketgani bilan ajralib turadi. Fiqh ilmi rivoji, uning mavjud an’analar bilan integratsiyasida Movarounnahr olimlarining o’rni alohida ekanini ta’kidlash kerak. XII-XIII asrlar islom huquqining barcha sohalarida yuksak e’tirofga sazovor bo’lgan faqih Burhoniddin Mahmud Buxoriyning (vaf. 616/1219) “Muhitul Burhoniyy” (المحيط البرهاني) asari ijara shartnomasiga oid mavjud fatvolarning tartiblangani va qoidalarning o’ziga xos uslubda tizimlashtirib bergani bilan ahamiyatlidir. Mazkur manba ijara shartnomasining tuzilishi va taraflarning manfaatlarini himoya qilish hamda ob’yektga nisbatan adolatli yondashishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyodagi islom ilmlarini o’rganishga ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot markazlarida islom huquqida ijara shartnomalarining tarixi va bugungi kundagi mohiyatini tadqiq etishga qaratilgan tizimli izlanishlar olib borilmoqda. Bunday tadqiqotlarda (إجاره) ijara shartnomalari: “الإجارة المنتهية بالتملك” (mulk qilib berish bilan tugaydigan ijara) “(الاستئجار على الطاعات) “ibodat masalalariga oid ijara” va “(الاستئجار على الأفعال المباحة) “muboh ishlar to’g’risidagi ijara”ga oid favtolarga ham ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada muhim manba hisoblangan “Muhitul Burhoniyy” (المحيط البرهاني) asarini kompleks tadqiq qilish va ijara shartnomalarining Movarounnahrda xos xususiyatlarini ochib berish ijara an’anasi mohiyatini yaxlit anglash imkonini beradi.

Yangi O‘zbekistonda diniy-ma’rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar allomalarning ilmiy-ma’naviy merosini aniqlash, ularning zamonaviy talqinini amalga oshirish hamda keng jamoatchilikka etkazib berishga katta imkoniyatlar yaratmoqda. Natijada “Hidoya” asari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, “Zamonaviy fiqhiy masalalar”, “Nodir fatvolar” hamda “Fatvolar to’plami. 500 savolga 500 javob” kitobining 1-juzi nashr etildi. Burhoniddin Mahmud Buxoriyning hanafiy fiqhiga oid mo’tabar manba hisoblangan “Muhitul Burhoniyy” asaridagi ijara masalasini tadqiq etish yuqoridagi ilmiy izlanishlarning davomi bo’lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo’ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi, 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ’ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-iyundagi 519-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining kutubxona fondini xorijiy adabiyotlar bilan boyitish to’g’risida”gi qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar

rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g’oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo’llari” nomli ustuvor yo’nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. Burhoniddin Mahmud Buxoriyning hayoti va ilmiy faoliyati, uning “Muhitul Burhoniy” asari borasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlarni hududiy jihatdan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

birinchisi, yevropalik olimlar, tadqiqotchilar Omelyan Pritsak (Germaniya), Karl Brokkelman (Germaniya), Reshat Gench va Umar Soner Hunkan (Turkiya) allomaning yashagan davri, uning oilasi, oila a’zolarini Buxorodagi siyosiy boshqaruvga ta’siri hamda o’sha vaqtda yuritilgan vaqf hujjatlari haqida ilmiy izlanishlar olib borgan. Baber Johansen, Abdullatif Valiy Adiyim, Monzer Kahf, Mahmud Jamol, Aleksandro Ferrari, Flavia Cortelezzi, Ahmet Akgunduz, Farhan Jamil Ahmed¹ kabi olimlar bank tizimi bilan bog‘liq ijara shartnomalarini islom huquqidagi asoslari haqida umumfiqhiy sohalar qatorida o’rgangan. Ammo ularning izlanishlariga “Muhitul Burhoniy” asaridagi ijara bilan bog‘liq fatvolar jalb etilmagan.

ikkinchisi, mavzu doirasida musulmon sharq tadqiqotchilari ishlanish olib borgan. Jumladan, “Muhitul Burhoniy” asari Abdulkarim Somiy Jundiyl tahqiqi asosida hamda shayx Nur Ahmad tomonidan nashr qilingan². Shu bilan birga, Ali ibn Nosir ibn Solih Suhayboniy, Javhara binti Sa’d ibn Muhammad, Muhammad ibn Abdulaziz ibn Muhammad, Hammod Hasan Muhammad Hasan, Fahd ibn Abdurahmon ibn Sanyon kabi olimlar tomonidan “Muhitul Burhoniy” asarning ayrim boblari tadqiq etilgan. Shuningdek, Muhammad Abdulaziz Hasan Zayd, Abdulloh Husayn Mavjan, Abu Sulaymon Abdulvahob Ibrohim, Doktor Ali Muhyiddin Qoradog‘iy³, A.Mahmud, Faizal Karbani, Muhammad Taqiy Usmoniy,

¹ Omeljan Pritsak. Al-i Burhan. Der Islam (zeitschrift für geschichte und kultur des Islamischen orientes) Band 30. Berlin: Walter de gruyter & co. 1952.-5. 81-133., Brockelmann C. Geschichte der arabischen Litteratur. 3 jildi. - Weimar-Berlin: Xay’a al-misriyya, 1898-1993., Reshat Genç. Karahanlı Devlet Teşkilatı (XI-XII.Yüzyıl). Istanbul: Kültür Bakanlığı Yayınları, 1981. – 5. 370., Ömer Soner Hunkan. Türk Hakanlığı (Karahanlılar) Kuruluş-Gelişme-Çöküş (766-1212). Istanbul: Tanıtım Hizmetleri Ticaret Limited Şirketi, 2007. – B. 523., Baber Johansen. The Islamic Law on Land Tax and Rent. – Taylor-Francis. 2016. – 156 b. Abdullateef Valiy Adiyim Ijarah Lease Contract and Islamic Banking Products. Amazon Digital Services LLC. – 2022. – 246 b., Monzer Kahf. Islamic finance contracts. - Al Manhal. 2013. – 508 b., Mahmoud El-Gamal. Islamic Finance Law, Economics, and Practice. – Cambridge University Press. 2006. – 221 b., Alessandro Ferrari, Flavia Cortelezzi. Contemporary Issues in Islamic Law, Economics and Finance. – Taylor-Francis. 2022. – 222 b., Farhan Jamil Ahmed. Islamic Leasing and Auto Financing System in Pakistan in Compliance with Islamic Sharia. MPRA Paper No. 116439, posted 22 Feb 2023 14:31 UTC. 2023. 42-b.

² Burhoniddin Mahmud Buxoriy. Muhitul Burhoniy. – Bayrut. Dorul kutubul ‘ilmiya. 2004. (9 jilddan iborat); Burhoniddin Mahmud Buxoriy. Muhitul Burhoniy – Karachi. Idoratul Qur’on val ‘ulumul islamiya. 2004. (25 jilddan iborat).

³ Ali ibn Nosir ibn Solih Suhayboniy. “Muhit” asarining “Karohiyat va istehson” bobidan “Hadya va sadaqa” bobiga tahqiqi. Mazusidagi doktorlik ishi. – Saudiya Arabistoni. 1998.; Javhara binti Sa’d ibn Muhammad. “Muhitul Burhoniy fi qihin Nu’moniy” asarining “Muzora’a” bobidan “Ma’zun” bobigacha tahqiqi. doktorlik ishi. – Saudiya Arabistoni. 2005. Mazkur ilmiy ishi “Muzora’a”, “Ashriba”, “Ikroh”, “Shurb”, “Hijr”, “Ma’zun” kitoblarini o’z ichiga olgan., Muhmmad ibn Abdulaziz ibn Muhammad. “Muhitul Burhoniy fi qihin Nu’moniy” asarining “Shahodat” va “Shahodatdan qaytish” kioblarining tahqiqi. doktorlik ishi. – Saudiya Arabistoni. 2005.; Hammod Hasan Muhammad Hasan. “Burhoniddin Mahmud Buxoriyning “Muhitul Burhoniy fi qihin Nu’moniy” asarining o’n sakkizinchi fasli hiylalar bo’limidan yigirma sakkinci fasli (hijrdagi) hiylalar bo’limiga tahqiqi” mavzusida

Muhammad Ayyub, Mehmet Sadik Kayar, Muhammad Haron Amir va Muhammad Saud Ansoriy⁴ tomonidan ijara shartnomalariga oid ma'lumotlar islom huquqi sohaları qatori o'rganilgan.

uchinchisi, o'zbekistonlik olim va tadqiqotchilardan R.Zohid va A.Dehqon, Abdulaziz Mansur, Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, S.Isxakov, A.Raxmonov, A.Raxmonov, M.Komilov, A. Mo'minov, A.Jurjoniy, Sh.Ziyodov, Q.Mahmudov, S.Primov va H.Aminov kabi tadqiqotchilar⁵ tomonidan yozilgan kitob, darslik va o'quv qo'llanmalarida ijara shartnomasiga oid ma'lumotlar islom huquqi sohaları qatorida bayon qilingan. Shuningdek, I.Bekmirzaevning Burhoniddin Mahmud Buxoriyning hayoti va ilmiy merosi hamda «Muhitul-Burhoniy» haqida ma'lumot beruvchi nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari⁶ da mavzuga doir ma'lumotlar tarixshunoslik va manbashunoslik nuqtai nazaridan ochib berilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining 2020–2022 yillarga mo'ljallangan FZ-202002146 – “Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlari asosida buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashning ma'rifiy, tarbiyaviy asoslarini o'zida jamlagan multimedia dasturi hamda mobil ilovasini yaratish” mavzuidagi ilmiy loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi “Muhitul Burhoniy” asarida ijara shartnomalari

magistrlik ishi. – Misr. 2006. – 483 b.; Fahd ibn Abdurahmon ibn Sanyon. “Muhitul Burhoniy fi fiqh in Nu'moniy” asarining “Da'vo kitobi”ning tahqiqi. doktorlik ishi. – Saudiya Arabistoni. (Yili ko'rsatilmagan)., Muhmmad Abdulaziz Hasan Zayd. Al-Ijaratu bayna al-fiqh al-islomiy. – Qohira. Aleksandiriya. – 1996. – 88 b.; Abdulloh Husayn Mavjan. Aqd al-ijara. – Misr. Kunuz al-ma'rifa. – 2001. – 132 b.; Abu Sulaymon Abdulvahob Ibrohim. Aqd al-ijara. –Jidda. Malik Fahd nashriyoti. – 2000. – 92 b., Doktor Ali Muhyiddin Qoradog'iy. Al-ijara 'ala manafi' al-ashxos. – Parij. – 2008. – 68 b.

⁴ Islamic Finance: Law, Economics, and Practice. Cambridge University Press. 2006. – 221 b.; Faizal Karbani. Mastering Islamic Finance: A Practical Guide to Sharia-compliant Banking. Pearson Education. 2015. – 191 b.; Muhammad Taqi Usmoniy. Islam and modernism. Idaratul Maorif. 1998. – 246 b. Muhammad Ayub. Understanding Islamic Finance (summary). Wiley. 2008. -544 b.; Mehmet Sedik Kayar. Islam hukukunda icare akdi. – Dicle universitesi Sosyal bilimler enstitüsü Temel islam bilimleri anabilim dali Islam huququ bilim dali Yuksak lisans tezi. – Diyar bakir, 2011. – 109 b., Muhammad Haroon Ameer va Muhammad Saud Ansari. “Islamic Banking: Ijarah and Conventional Leasing” Developing Country Studies ISSN 2224-607X (Paper) ISSN 2225-0565. Vol.4, No.9, 2014.

⁵ P.Зохид. А.Дехқон. Мухтасар (шариат қонунларига қисқача шарҳлар). – Т.: «Мовароуннаҳр», 1994. – 424 б., Максудхўжа ибн Мансурхўжа. Мажмаъ ул максуд. Шайх Абдулазиз Мансур таҳрири остида. – Т.: «Шарк» нашриёт матбаа акциядорлик компанияси, 2015. 1-жуз. – 578 б., 2-жуз. – 565 б., 3-жуз. – 565 б., Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Кифоя. – Т.: «Hilol-Nashr», 2015. 1-жуз. – 584., 2-жуз. - 584 б., 3-жуз. – 640 б., С.А.Исхаков. Ислom фуқорoлик ҳуқуқи асослари. Ўқув қўлланма. – Тошкент. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2005. – 128 б., Аъзамжон Раҳмонов, Абдумухтор Раҳмонов. Ислom ҳуқуқи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Т.: «ДЮИ» нашриёти. 2007. – 496 б., Комилов М. Мовароуннаҳрда фикҳ илмининг ривожини ва фақиҳ Алоуддин ас-Самарқандий. Монография. – Т.: Истиқлол, 2006. – 208 б., Муминов А. Ҳанафий уламоларнинг Марказий Мовароуннаҳр шаҳарлари ҳаётида тутган ўрни ва роли (II-VII/VIII-XIII асрлар): тар.фан.докт. дис... автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2003. – 46 б., Жузжоний А.Ш. Марғиноний ва унинг издошлари. – Т.: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2000. – 56 б., Зиёдов Ш. Маҳмудов. Қ. Ўрта асрларда яшаган машҳур самарқандлик алломалар. – Т.: Ғафур Ғулom, 2019. – 256 б., Аминов Х., Примов С. Ҳанафий фикҳи тарихи, манбалари ва истилоҳлари [Матн]. – Т.: Мовароуннаҳр, 2017. – 400 б.

⁶ Бекмирзаев И.И. Бурҳонуддин Маҳмуд ал-Бухорий ва Мовароуннаҳр қозилиги. Монография. – Тошкент: Таълим нашриёти, 2011. – 200 б., Бекмирзаев И. Мовароуннаҳрда қозилик ҳужжатлари: тарихий илдишлар ва таҳлилий ёндашувлар. Монография. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2014. – 332 б.;

tuzishga oid fatvolarning o‘ziga xos jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

islom huquqida ijara tushunchasi va shartnomalar tuzishning fiqhiy-nazariy asoslarini ochib berish;

Qur’on suralarida kelgan ijara bilan bog‘liq shartnomalarni tasniflash;

Burhoniddin Mahmud Buxoriy fiqhiy merosida ijara shartnomalarini tartiblash asoslarini ko‘rsatib berish;

“Muhitul Burhoniy” asarida ijara shartnomasi tavsifiy xususiyatlarini yoritish; ijara shartnomalarini tuzishda hanafiylik qoidalarining tartiblanishini belgilash;

asarda ijarani tugatish talablarining fiqhiy asoslarini qiyosiy tahlil etish;

“Muhitul Burhoniy”da ko‘chmas mulklarning ijarasiga doir masalalarni ochib berish;

Burhoniddin Buxoriyning ijara asosidagi mehnat munosabatlariga oid kelishuvlarni tartiblashdagi uslubini aniqlash;

asarning zamonaviy ijtimoiy muammolar yechimidagi ahamiyatini ilmiy asoslash hamda ulardan unumli foydalanish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida islom huquqidagi ijara shartnomalari olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida Burhoniddin Mahmud Buxoriyning “Muhitul Burxoniy” asarida ijara shartnomasini tuzish bilan bog‘liq qoidalar belgilangan.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqotda kompleks yondashuv, tizimlilik, tarixiylik, qiyosiy-tanqidiy, xolislik kabi metodlardan keng foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Mahmud Buxoriy “Muhitul Burhoniy” asarining *الإجَارَةُ الطَّوِيلَةُ الْمَرْسُومَةُ بِبُخَارَى* (Buxoroda ommalashgan uzoq muddatli ijara shartnomasi) bobida o‘rta asrlarda Buxoro aholisining odatiga aylangan uzoq muddatli ijara shartnomasining shar‘iy asoslarini ko‘rsatib bergani sababli, uning ilk bor Movarounnahr va hanafiy mazhabi keng tarqalgan o‘lkalarda amaliyotga joriy etilgani dalillangan;

olim *الاستئْجَارُ عَلَى الْمَعَاصِي* (ta’qiqlangan amallar xususidagi ijara) nomli alohida bobda “ijara shartnomalari tomonlardan biri yoki har ikkisinin jazolanishiga sabab bo‘lmasligi” qoidasini shar‘iy jihatdan asoslab berish orqali jamiyatda uyushgan jinoyatchilikning oldini olishga doir mahalliy tizim shakllantirgani aniqlangan;

“Muhitul Burhoniy” kitobida keltirilgan *الاستئْجَارُ لِيَرْفَعَ الْأَمْرَ إِلَى السُّلْطَانِ* (muammolarni davlat rahbariga etkazish uchun ijara haqi evaziga odam yollash) bobining qiyosiy tahlili natijasida o‘z-o‘zini boshqarish uslublariga asoslangan zamonaviy jamiyatda aholining muammolarini yuqori instansiya doirasida adolatli hal qilish amaliyoti Buxoroda o‘rta asrlardayoq shakllangani ochib berilgan;

alloma asarda mulk daxlsizligi, shaxs manfaatini o‘z ichiga oluvchi egalik huquqi bilan tugatiladigan ijara shartnomalarining fiqhiy asoslarini shakllantirish orqali hadya yoki o‘zaro va’dalashuv ko‘rinishida ikkinchi tomonga mulk qilib

berish, nasiya savdodan farqli o'laroq, har ikki tomonning manfaatlariga xizmat qilishini isbotlab bergani dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Burhoniddin Mahmud Buxoriy "Muhitul Burhoniyy" asarini yaratishda o'zidan oldingi faqihlarning asarlari va fatvolaridan foydalangani, shuningdek, ijara shartnomalarini rivoyat kelmagan masalalarda mustaqil tarzda ijthod qilishda o'ziga xos uslubga ega bo'lgani, jumladan, mavzularni tartibga solishda yangicha yondashuvi dalillar bilan isbotlangan;

ijara shartnomasining asosiy xususiyatlari: uni tuzish tartibi, tomonlarning huquq va majburiyatlari, ijaraga olingan narsaga oid tartib-qoidalar, shartnomani bekor qilishga doir normalar, shu jumladan, qarindosh-urug'chilik munosabatlarini mustahkamligini ta'minlash, jamiyatda uyushgan jinoyatchilikning oldini olishga doir mahalliy tizim shakllantirgani ilmiy asoslangan;

"Muhitul Burhoniyy" asarini o'rganish orqali muallifning ijara shartnomalariga oid masalalarini yechishdagi yondashuvlari fiqh fanini o'rganayotgan talabalarga qulayroq bo'lgani uchun qadimdan asardan diniy ta'lim muassasalarida talabalar uchun fiqh fanidan darslik sifatida foydalanib kelingani aniqlangan;

Mahmud Buxoriyning "Muhitul Burhoniyy" asarida ijara bilan bog'liq Buxoro an'analari doir o'ziga xos fatvolar keyingi asrlarda yaratilgan "Fatavoi Tatarxoniya", "Fatavoi Hindiya", "Banoya sharhi Hidoya" kabi fatvo va fiqh kitoblariga kiritilishi natijasida Movarounnahrda doir uzoq muddatli shartnoma turining butun musulmon dunyosiga tarqalishiga sabab bo'lgani dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi "Muhitul Burhoniyy" asarining O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozma fondida 3102 va 5835 raqami ostida saqlanayotgan qo'lyozma nusxalari, Abdulkarim Somiy Jundiyy tahqiqi asosida hamda shayx Nur Ahmad tomonidan amalga oshirilgan zamonaviy nashriga tayanilgani, dalillar bilan asoslangani, zamonaviy qiyosiy-tarixiy usullardan foydalanilgani hamda Sharq va G'arb islomshunoslik maktablarida shakllangan qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgani, tadqiqot natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda bayon etilgan Burhoniddin Mahmud Buxoriyning Movarounnahr islom ilmlari rivojida o'rni hamda "Muhitul Burhoniyy" asarining hanafiy fiqhi ilmida muhim manba ekani, shuningdek, mazkur asardagi ijara shartnomasi bilan bog'liq qoidalar borasidagi ilmiy-nazariy xulosalar sohaga oid kelgusi ilmiy tadqiqotlarga asos bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy va o'rta maxsus diniy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan "Islom tarixi va manbashunosligi", "O'rta Osiyoda islom tarixi", "Islomshunoslik", "Islom huquqshunosligi", "Islom huquqi metodologiyasi", "Islom huquqi asoslari", "Klassik fiqhiy matnlar (Furu'ul-fiqh)", "Movarounnahr allomalari" kabi fanlar mazmunini yangi nazariy ishlanmalar bilan boyitishda, sohaga oid fakultativ darslar, seminar mashg'ulotlari va maxsus kurslarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Burhoniddin Mahmud Buxoriyning “Muhitul Burhoniy” asarida ijara shartnomalari bo‘yicha tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

Mahmud Buxoriy “Muhitul Burhoniy” asarining *الإجَارَةُ الطَّوِيلَةُ الْمَرْسُومَةُ بِبُخَارَى* (Buxoroda ommalashgan uzoq muddatli ijara shartnomasi) bobida o‘rta asrlarda Buxoro aholisining odatiga aylangan uzoq muddatli ijara shartnomasining shar‘iy asoslarini ko‘rsatib bergani sababli uning ilk bor Movarounnahr va hanafiy mazhabi keng tarqalgan o‘lkalarda amaliyotga joriy etilgani dalillanganligi to‘g‘risidagi ilmiy xulosalar buyurtma asosida tayyorlangan “O‘rta asrlarda yashagan mashhur samarqandlik allomalar” va “O‘rta asr sharq allomalari ensiklopediyasi” kitoblari mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023-yil 1-noyabrdagi 02/504-son ma‘lumotnomasi). Natijada, mazkur ijara turining o‘ziga xos jihatlari haqidagi ma‘lumotlar ilmiy jamoatchilikka etib borishiga xizmat qilgan;

olim *الاستئْجَارُ عَلَى الْمَعَاصِي* (taqiqlangan amallar xususidagi ijara) nomli alohida bobda “ijara shartnomalari tomonlardan biri yoki har ikkisinin jazolanishiga sabab bo‘lmasligi” qoidasini shar‘iy jihatdan asoslab berish orqali jamiyatda uyushgan jinoyatchilikning oldini olishga doir mahalliy tizim shakllantirgani aniqlanganligi xususidagi ilmiy xulosalar O‘zbekiston musulmonlari idorasining buyurtamasi asosida chop etilgan “Fatvolar to‘plami. 500 savolga 500 javob” kitobining (1-juzi) mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston musulmonlari idorasining 2023-yil 1-noyabrdagi 4764-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, o‘quvchilarda shariatda ibodat, taqiqlangan va muboh ishlar bilan bog‘liq ijara shartnomalarining mohiyati to‘g‘risidagi bilimlari shakllanishiga xizmat qilgan;

“Muhitul Burhoniy” kitobida keltirilgan *الاستئْجَارُ لِيَرْفَعَ الْأَمْرَ إِلَى السُّلْطَانِ* (muammolarni davlat rahbariga etkazish uchun ijara haqi evaziga odam yollash) bobining qiyosiy tahlili natijasida o‘z-o‘zini boshqarish uslublariga asoslangan zamonaviy jamiyatda aholining muammolarini yuqori instansiya doirasida adolatli hal qilish amaliyoti Buxoroda o‘rta asrlardayoq shakllangani ochib berilgani to‘g‘risidagi ilmiy xulosalar buyurtma asosida nashr etilgan “Islom huquqshunosligi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2023-yil 31-oktyabrdagi 02-02/1/387-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, talabalarda aholining ijtimoiy muammolarini o‘rganish va uni yuqori instansiya doirasida adolatli hal qilish amaliyoti bugungi kunda mazkur masalada o‘rnatilgan tartibga mos ekani to‘g‘risidagi tushuncha shakllanishiga xizmat qilgan;

alloma asarda mulk daxlsizligi, shaxs manfaatini o‘z ichiga oluvchi egalik huquqi bilan tugatiladigan ijara shartnomalarining fiqhiy asoslarini shakllantirish orqali hadya yoki o‘zaro va‘dalashuv ko‘rinishida ikkinchi tomonga mulk qilib berish, nasiya savdodan farqli o‘laroq, har ikki tomonning manfaatlariga xizmat qilishini isbotlab bergani dalillangani to‘g‘risidagi ilmiy xulosalar buyurma asosida nashr etilgan “Zamonaviy fiqhiy masalalar va fatvo berish asoslari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

huzuridagi O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazining 2024-yil 5-yanvardagi 08-17/08-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarda egalik huquqi faqatgina savdo, hadya qilish bilan emas, balki ijara shartnomasi bilan ham amalga oshirishilishi mumkinligi to‘g‘risidagi tushunchalar shakllanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 4 ta – 1 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprotatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 13 ta ilmiy ish, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 9 ta maqola, ulardan 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan. 1 ta xalqaro va 3 ta mahalliy anjuman to‘plamlarida tezislar e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 133 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, o‘rganish ob‘yekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprotatsiyasi, natijalari, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Islom huquqida ijara shartnomalarini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari”** nomli birinchi bobining *“Islom huquqida ijara tushunchasi va shartnomalar tuzishning fiqhiy-nazariy asoslari”* deb nomlangan birinchi bandida ijara so‘zining lug‘aviy va shar‘iy-istilohiy ma‘nolari hamda uning tuzilishi bilan bog‘liq fiqhiy-nazariy asoslari ahli sunna val jamoaning mazhablari doirasida muhokama qilingan. Ijara shartnomasining ilmiy-istilohiy ma‘nosi xususida islom huquqshunosligiga oid manbalarda bir-biriga yaqin bo‘lgan ta‘riflar keltirilgan. Jumladan, hanafiylar nazdida: *“(الإجارة) Ijara – evaz barobariga foyda uchun tuzilgan aqd (shartnoma)⁷, deb ta‘rif berilgan. Shofe‘iylar esa, “Ijara – evaz barobariga quyidagi shartlar asosida foydaga egalik qilish. Ular: evaz (ijara haqi)ning aniq bo‘lishi va ijaraga olingan mulk tasarruf va mubohlikni qabul qiluvchi bo‘lishi”⁸, deb ta‘rifga ayrim shartlarni ham kiritgan. Molikiy*

⁷ Shamsiddin Saraxsiy. Mabsut. J.15. – Bayrut: Dorul ma‘rifa. 1989. – B. 74.; Abulhusayn Quduriy. Muxtasarul Quduriy. – Bayrut: Muassasatur rayyon. 2005. – 101 b.; Burhoniddin Marg‘inoniy. Hidoya sharhi bidoyatul muftadiy. J.6. – Madina: Dorus siroj. 2019. – B. 5.; Ibn Humom Hanafiy. Sharhi fathul qodir. J.9. – Bayrut: Dorul kutubul ‘ilmiya. 2003. – B. 58; Ali Jurjoniy. Mo‘jamut ta‘rifot. – Qohira: Dorul fazilat. – B. 12.; Vahba Zuhayliy. Mavsul‘atul fiqhil islamiy val qozoyo mu‘osara. J.4. – Damashq: Dorul fikr. 2010. – B. 525.

⁸ Shamsiddin Romliy. Nihoyatul muhtaj ila sharhil minhaj. J.5. – Bayrut: Dorul kutubul ‘ilmiya. 2003. – B. 261.; Xatib Shirbiniy. Mug‘nil muhtaj. J.2. – Bayrut: Dorul ma‘rifa. 2008. – B. 427.

mazhabi faqihlari ijara shartnomasi bilan bog‘liq masalalarni ijara va ikro (kira haqi)ga bo‘lib o‘rganishgan. Shu bois, ular “Ijara – shaxslarni (aql egalarini) biror ishga yollash uchun tuzilgan shartnomadir. (الإكراء) Ikro – aqlsiz narsalar bilan bog‘liq ijara shartnomasi”⁹, deb umumiy ta‘rifni ikki qismga bo‘lib keltirishgan. Hanbaliy mazhabi ulamolari ijaraning ta‘rifida “Ijara – bayning bir turi. Chunki taraflarning har biri boshqasiga mulk qilib beradi. U (ijara) foydani sotishdir. Foyda muayyan narsaning o‘rnida”¹⁰, deyishgan.

Ahli sunna val jamoa mazhabalari ijara atamasining ilmiy-istilohiy ma‘nosini ifoda etishda uning lug‘aviy ma‘nosiga alohida e‘tibor qaratganlar. Sababi, bu orqali shu ma‘nodagi boshqa iboralarni ham o‘rganilishiga olib kelgan. Fiqhiy-istilohiy ma‘nosini o‘rganishda yondashuv turlicha ekanini ko‘rish mumkin. Buning asosiy sababi, shartnomaning sohaga oid barcha turini qamrab olishidir. Hanafiy mazhabi ulamolari ijaraga uning turlarini qamrab olish nuqtai nazaridan emas, balki ta‘rifga tayangan holda o‘rganganlar. Shartnomaning to‘g‘ri tuzilishi yoki to‘g‘ri tuzilmasligi islom huquqiga oid boshqa qoidalar asosida tartibga solinishiga ahamiyat qaratganlar. Boshqa mazhab ulamolari ta‘rifga ijaraning shartlarini ham kiritishgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, mazkur shartlar topilmagan holatlarda ijara shartnomasini tuzish joiz bo‘lmaydi.

Birinchi bobning “*Qur‘on oyatlarida kelgan ijara bilan bog‘liq hukmlar tasnifi*” deb nomlangan ikkinchi bandida ijara shartnomasi bilan bog‘liq oyatlar, ularning nozil bo‘lish sabablari, ular to‘g‘risida mufassirlarning fikrlari, shuningdek, ulardan olinadigan shar‘iy hukmlar tasnifiga to‘xtalib o‘tilgan.

الإِجَارَةُ so‘zining aynan o‘zi Qur‘onda zikr qilinmagan. Ammo uning o‘zagi أُجْرٌ so‘zi 87 marta keltirilgan. Ularning aksari haq, savob, mukofot ma‘nolarini anglatadi. Faqat Kahf surasining 77-oyati hamda Qasos surasining 25-oyatidagi أُجْرٌ so‘zi «xizmat haqi» ma‘nosini anglatgan. Mazkur so‘zning ko‘plik shakli أَجُورٌ bo‘lib, u Qur‘onda 12 marta kelgan. Ularning barchasida haq, savob, mukofot, mahr ma‘nolarini ifoda etgan. Ulardan faqat Taloq surasining 6-oyatida zikr qilingan أَجُورٌ so‘zi ijara shartnomasi bilan bog‘liq ekanini ko‘rish mumkin. Shuningdek, اسْتَأْجَرَ (ijaraga oldi) fe‘li Qasos surasining 26-oyatida ikki marta, تَأْجُرُ (narsani ijaraga beradi¹¹) fe‘li mazkur suraning 27-oyatida bir marta zikr qilingan.

Qur‘on oyatlarida kelgan ijara shartnomasi bilan bog‘liq hukmlarni quyidagi sinflarga ajratish mumkin:

- odamlarni ishga yollash;
- mukofot e‘lon qilish asosida ishchilarni yollash;
- ijara shartnomasini tuzish bilan bog‘liq oyatlar.

Qur‘on oyatlarida ijara shartnomasi bilan bog‘liq shartlar ba‘zan to‘liq, ba‘zan qisman bayon qilingan. Buning sababini oldingi payg‘abarlarning shariatida ijara munosabatlari shu yo‘sinda tartibga solingani bilan izohlash mumkin. Chunki oldingi shariatlar o‘sha davr yoki ma‘lum qabilalardagi urf-odatlardan kelib chiqib

⁹ Xattob. Mavahibul jalil. J.6. – Mavritaniya: Dorur rizvon. 2010. – B. 141.

¹⁰ Ibn Qudoma. Mug‘niy. J.8. – Riyoz: Dor olamul kutub. 1997. – B. 7.

¹¹ Ibrohimov N., Al-Qomus. Arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘at/ [Matn] J.1. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – B. 30-32

joriy qilingan. Ularni tartibga solgan. Islom dini kelgach, oldingi shariatlardagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlarga oid qoidalar butunlay olib tashlanmagan, balki ular qisman o'zgartirish orqali tartibga solingan.

Oyatlarda ijara shartnomasiga oid hukmlarni bayon qilishda faqat *الإجارة* kalimasiga aloqador so'zlar qo'llanmagan. Balki arab tilida fe'l va ismlarning qo'llanishi, ularning boblardagi xususiyatlaridan kelib chiqib boshqa so'zlar ham qo'llangan.

Muhokama qilingan oyatlarda ijara shartnomasining odamlarni ishga yollash bilan bog'liq turi keng o'rganilgan. Moddiy narsalarni ijaraga berish va olish to'g'risidagi hukmlarni faqat Baqara va Jum'a suralaridagi oyatlarning umumiy mazmunidan tushunib olish mumkin.

Bobning "*Burhoniddin Mahmud Buxoriy fiqhiy merosida ijara shartnomalarini tartiblash asoslari*" deb nomlangan uchinchi bandida muallifning mazkur asarni yaratishdagi uslubi, qanday kitoblardan foydalangani hamda qaysi faqihlarning fatvolariga tayangani bayon qilingan. Burhoniddin Mahmud Buxoriy asarni yaratishda quyidagi uslublardan foydalangan:

birinchisi, mujtahidlarning so'zlarini qiyoslash. Unga misol qilib quyidagi masalani aytish mumkin. "Agar ijara haqi kayliy, vazniy yoki adadiy bo'lsa, unga aniqlik kiritishda miqdori va sifati bayon qilinadi. Shuningdek, uni ijaraga beruvchiga topshirish xarajat bilan bog'liq bo'lsa, joyni ham belgilash lozim bo'ladi. Agar unga bog'liq bo'lmasa, shart emas. Bu Abu Hanifaning so'zi. Abu Yusuf: topshirish o'rnini belgilash shart emas, degan".

ikkinchisi, asl manbalarda kelgan rivoyatlarni qiyoslash. Shartnoma tuzish bilan ijara haqiga egalik lozim bo'lishi yoki lozim bo'lmasligi to'g'risidagi masalada, avvalo, imom Muhammadning *الجامع الصغير* "Jome'us sag'ir" kitobidagi rivoyatini va boshqa kitoblardagi rivoyatlarini qiyoslagan. So'ng o'zining ijtihodiy qarashini quyidagicha bayon qilgan: "Ijara ikki kishi o'rtasida tuziladigan shartnoma. Unda imkon qadar tomonlar o'rtasida teng huquqlilik mezoniga amal qilish lozim".

uchinchisi, mazhab ulamolarining so'zlarini qiyoslash. Alloma har bir masalani sunniylikning barcha mazhablari doirasida qiyoslamagan. Balki ayrim masalalarni faqatgina shofe'iylik mazhabi bilan qiyoslagan. Masalan, hanafiylar nazdida ijara haqi foyda bo'lsa, ijaraga berilayotgan narsaning jinsi bilan bir xil bo'lsa, joiz bo'lmaydi. Misol uchun falon joydagi uyimda bir oy yashashing evaziga sening uyingda bir oy yashayman, kabi ijaralar. Bu holatda imom Sho'fe'iy nazdida joiz bo'ladi.

to'rtinchisi, masalalarni bir-biriga qiyoslash. Ijara shartnomasiga oid masalalarni boshqa shartnomalar bilan qiyoslash orqali ochib bergan¹². Allomaning mazkur uslubi, shuningdek, ijara shartnomalarini 34 ta fasl va mazkur fasllarga aloqador 36 ta bo'lim asosida tartibga solishi keyingi asrlarda "Fatavoi Tatarxoniy", "Fatavoi hindiya" asarlarining yaratilishida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

¹² Burhoniddin Mahmud Buxoriy. Muhitul Burhoniyy. J.7. – Bayrut. Dorul kutubul 'ilmiyya. 2004. – B. 395, 396, 399.

Dissertatsiyaning “**Muhitul Burhoniy**”da ijara shartnomalarini tuzishga oid tartib-tamoyillar” nomli ikkinchi bobining “*Muhitul Burhoniy*” asarida ijara shartnomasining tavsifiy xususiyatlari” deb nomlangan birinchi bandida ijara shartnomasining rukn, shart va turlariga oid xususiyatlari muhokama qilingan. Jumladan, hanafiy mazhabi faqihlarining nazdida ijara shartnomasining rukni ikkita, ijob va qabul. Bu haqda “Muhitul Burhoniy” asarida quyidagicha bayon qilingan: “Ijara shartnomasining rukni ijob (إيجاب) va qabul (قبول)”. Ijara shartnomasining shartlari xususida turli fikrlar bildirilgan bo’lsa-da, hanafiy mazhabida ikki jihat sanab o’tilgan:

- ijara haqining jinsi va miqdorining ma’lum bo’lishi;
- foydaning aniq bo’lishi (agar foyda ish kuchi bilan bog’liq bo’lsa)¹³.

Ijara shartnomasining rukn va shartlarini belgilashda ahli sunna val jamoa mazhablari turlicha yondashgan. Hanafiylarga ko’ra, shartnomaning ruknlari ham shartlari ham ikkita, boshqalarning fikriga ko’ra esa, to’rtta. Bu holatni oilaviy munosabatlarda, ya’ni nikoh shartnomasida, shuningdek, ijtimoiy sohaga oid savdo-sotiq kelishuvlarida ham ko’rish mumkin. Bunga mazhab yetakchilarining rukn va shart tushunchalarini fiqhiy-istilohiy ma’nosini ifoda etishdagi yondashuvlari sabab bo’lgan.

Ijaraning turlari haqida “Muhitul Burhoniy” asarida quyidagicha bayon qilingan. “Ijaraning turlari ikkitadir, ular:

- ijaratul ‘ayn (إجارة العين), ya’ni muayyan mulkni ijara haqi evaziga boshqa shaxsning foydalanishiga topshirish;
- ijaratul ‘amal (إجارة العمل), ya’ni bir kishini xizmat haqi to’lash asosida ishga yollash amaliyoti¹⁴.

Hanafiy mazhabi faqihlari ijaraning turlarini boshqa mazhablarga qaraganda biroz sodda uslubda bayon qilishgan. Muayyan narsalar va inson mehnati. Muayyan narsalarning ijarasi savdo munosabatlariga qiyosan joiz deyiladi. Ammo inson mehnatini unga qiyoslab bo’lmaydi. Chunki u shariatda qiymatga ega emas. Bu haqda “Muhitul Burhoniy” asarida quyidagicha ta’kidlangan: “Shartnoma vaqtida ish kuchi mavjud bo’lmaydi. Ammo uni shariat muayyan mavjud narsalarga tenglashtirdi”¹⁵. Shunga ko’ra, alloma odamlarni ijara shartnomasi asosida ishga yollash, ularning mehnatidan foydalanish shariatda joiz ekanligini ta’kidlagan.

“*Ijara shartnomalarini tuzishda hanafiylik qoidalarining tartiblanishi*” deb nomlangan ikkinchi bobning ikkinchi bandida ijara shartnomasini tuzishda hanafiy mazhabi faqihlari tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar qiyosiy tahlil qilingan. Xususan:

- ijara shartnomasini tuzuvchilar oqil bo’lishi, aqli nosog’lom yoki balog’atga etmagan shaxslar shartnomani tuzishda bevosita ishtirok etishi mumkin

¹³ Burhoniddin Mahmud Buxoriy. Zaxiratul Burhoniy. J.11. – Bayrut. Dorul kutubul ‘ilmiya. 2019. – B. 430.; Ibn Obidin. Raddul muxtor. J.9. – Bayrut: Dorul ma’rifa. 2018. – B. 7.

¹⁴ Nizomiddin Burhonpuriy (Shayx Nizom) va boshqalar. Fatavoi hindiya. J.4. – Bayrut: Dorul kutubul ‘ilmiya. 2000. – B. 462.

¹⁵ Burhoniddin Mahmud Buxoriy. Muhitul Burhoniy. J.7. – Bayrut. Dorul kutubul ‘ilmiya. 2004. – B. 394.

emasligi. Tamyiz yoshining belgilanishi va uni belgilashda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan narsalar;

– bir-biriga nisbatan burchli qarindoshlar bilan ijara shartnomasini tuzishga oid tartiblar;

– shartnomani tuzishda foydaga aniqlik kiritish muhimligi; bunda muayyan narsadan foydalanish yoki aniq ish turiga ishga yollash bilan bog'liq ijara shartnomalari;

– ijara haqiga aniqlik kiritilishi; ijara haqi sifatida o'lchab, tortib yoki sanab sotiladigan muayyan narsalar, mato va kiyim-kechaklar, chorva hayvon belgilanishi hamda narsadan foydalanish evaziga boshqa narsadan foydalanish kiritilishi mumkin¹⁶.

Mazkur qoidalarni ishlab chiqilishida Qur'on oyatlari, hadislar va sahobalarning so'zlari hamda faqihlarning ijtihodiy qarashlari asos bo'lgan. Qoidalar shartnomaning to'g'ri tuzilishiga olib kelishi bilan birga, tomonlarning haq-huquqlarini himoya qilinishi hamda ijaraga olingan narsaning daxlsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan. Shuningdek, qoidalar tomonlar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarning oldini olishda muhim sanalgan.

Ikkinchi bobning "*Asarda ijarani tugatish talablarining fiqhiy asoslari*" deb nomlangan uchinchi bobida ijara shartnomasining tugatilishi, uning muddatidan oldin bekor qilinishiga olib keluvchi omillarning fiqhiy asoslari atroflicha muhokama qilingan. Unga ko'ra,

- belgilangan muddatning tugashi;
- tomonlardan biri yoki har ikkisining talabi;
- shartnoma tuzishga olib kelgan omilning yo'q bo'lishi;
- ijaraga olingan narsaning yo'q bo'lib ketishi;
- tomonlardan birining vafot etishi;
- ijaraga olingan narsaga foydalanib bo'lmaydigan darajada ayb yetishi;
- uzrli sabablarga ko'ra;
- qozining qarori asosida¹⁷.

Mazkur holatlar kuzatilgan vaqtda tomonlarning biri yoki har ikkisining talabiga ko'ra, shartnoma muddatidan oldin bekor qilinishiga olib keladi. Yuzaga kelgan nizoli vaziyat ijara shartnomasi hamda islom huquqiga oid boshqa qoidalar asosida bartaraf etiladi.

Shuningdek, ulamolar ijara shartnomasi huquqiy asosga ega ekanini aniqlashda uning dastlab tuzilishiga e'tibor qaratganlar. Shunga ko'ra, ijara sahih (to'g'ri), g'ayri sahih (noto'g'ri) tuzilgan shartnomaga ajratilgan:

Sahih (صحيح) – belgilangan talablar asosida tuzilgan ijara shartnomasi;

G'ayri sahih (غير صحيح) – shartnomaning barcha yoki ayrim shartlariga amal qilmasdan tuzilishi¹⁸.

¹⁶ Burhoniddin Mahmud Buxoriy. Muhitul Burhoniyy. J.11. – Bayrut. Dorul kutubul 'ilmiya. 2004. – B. 217-218.; Mualliflar jamoasi. Mavsu'atul fiqhiya. J.1. – Quvayt: Vaqf vazirligi. 1984. – B. 263

¹⁷ Burhoniddin Mahmud Buxoriy. Muhitul Burhoniyy. J.7. – Bayrut. Dorul kutubul 'ilmiya. 2004. – B. 498.; Vahba Zuhayliy. Fiqhul islom va adillatuhu. J.4. – Damashq: Dorul fikr. 1985. – B. 546.

¹⁸ Doktor Muhammad Mustafo Zuhayliy. Vajiz fi usulil fiqhil islamiyy. J.1. – Damashq: Dorul xayr. 2006. – B. 424.

G'ayri sahih (غير صحيح) ijara shartnomalar ikki turga bo'linadi. Botil (باطل) va fosid (فاسد) ijara shartnomalariga farqlanadi.

Botil (باطل) ijara shartnomasi. "Raddul muxtor" asarida unga quyidagicha ta'rif berilgan: "Asli va sifatiga e'tibor qaratilmasdan tuzilgan ijara shartnomasidir". Ta'rifda asli deyilganda shartnomaning rukni, sifati esa, uning shartlarini nazarda tutadi. Bu kabi holatlarda tomonlar o'rtasida shartnoma tuzilmagan deb hisoblanadi va uni to'g'irlash uchun shartnoma yangidan tuzilishi talab etiladi.

Fosid (فاسد) ijara shartnomasi. Mazkur asarda unga quyidagicha ta'rif berilgan: "Asliga ahamiyat berilib, sifatiga e'tibor qaratilmagan ijara shartnomasidir"¹⁹. Shartnomani tuzishda ruknlariga amal qilingan. Ammo uning shartlariga umuman yoki ayrimlariga e'tibor qaratilmagan bo'ladi. Bu kabi holatlarda tomonlar o'rtasida shartnoma tuzilgan bo'lib, huquqiy asosga ega bo'lsa-da, unga o'zgartirish va tuzatishlar kiritish taqozo etiladi.

Dissertatsiyaning **"Muhiatul Burhoniy" asarining zamonaviy ijara masalalari yechimidagi ahamiyati** nomli uchinchi bobining *"Muhiatul Burhoniy" da ko'chmas mulklarning ijarasiga doir masalalar* deb nomlangan birinchi bandida e'tibor qaratildiki, bugungi kunda ko'chmas mulk va avtotransport vositalarining savdosi ijara shartnomasi asosida amalga oshirilmoqda. Bir qarashda ularning o'rtasidagi munosabat **بَيْعُ التَّقْسِيطِ** (taqsit savdosi) ga o'xshaydi. "Taqsit" so'zi lug'atda bo'lib-bo'lib to'lash ma'nosida bo'lib, shar'iy istilohda savdo molini naqd qilib, bahosini nasiya qilishga aytiladi. Bunda savdo molining bahosi naqd to'lashga nisbatan qimmatroq yoki barobar yoxud pastroq bo'lishining e'tibori yo'q. Islom Fiqhi Akademiyasining yettinchi majlisida ushbu savdo to'g'risida ulamolar munoqashalari tinglangach, uning joizligi to'g'risida qaror qabul qilindi²⁰. Ijara savdoning bir turi, ammo uning aynan o'zi emas. Shu bois, ijara shartnomasi savdoning mazkur turiga qiyoslanmaydi.

Hasan Javohiriy "Buhus fil fiqhil muosara" nomli kitobida **البيع الإيجاري** (ijara asosida savdo) ilk bor 1846-yildan boshlab "Fuqarolik kodeks"larida qo'llanilganini aytib o'tgan²¹. Ammo qaysi mamlakatning fuqarolik kodeksiga kiritilganiga aniqlik kiritmagan. Xolid Hofiy o'zining "Mulk qilib berish bilan tugaydigan ijara" nomli ilmiy ishida uni ilk bor Angliyada **الهائيربرشاس** (Hire-Purchase) nomi bilan qo'llanilganini aytib o'tgan. Shuningdek, 1953-yildan boshlab Amerikaning turli shtatlarida **عقد الليسنج** "Leasing", 1962-yilda Fransiyada "Credit Bail" nomi bilan qo'llanilgan²². Ko'rinib turibdiki, ijaraning mazkur turi XIX-XX asrlarda fuqarolik kodekslarida namoyon bo'lgan bo'lsa-da, aholi orasida o'rta asrlardayoq amaliyotda bo'lgan, degan xulosa kelish mumkin.

Islom huquqida mulk qilib berish bilan tugaydigan ijara shartnomasining hukmi joiz.

¹⁹ Ibn Obidin. Raddul muxtor. J.9. – Bayrut: Dorul ma'rifa. 2018. – B. 62.

²⁰ Taqsit savdosi (islom.uz Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. 29.03.2018).

²¹ Hasan Javohiriy. Buhus fil fiqhil muosara. J.2. – Bayrut: Doruz xaxoir. – B. 91.

²² Xolid Hofiy. Ijarotul muntahitu bit tamlik. – Saudiya Arabistoni: Malik Su'ud universiteti. magistrlik ishi. – B. 61-62.

Bu qoida ko‘chmas va ko‘char mulklarga nisbatan qo‘llaniladi. Oziq-ovqat hamda foydalanish jarayonida qisman kamayib yoki butunlay yo‘q bo‘lib ketadigan narsalarni ijara shartnomasi asosida sotish yoki sotib olish joiz bo‘lmaydi. Bu haqda “Muhitul Burhoniy” asarida aytilishicha: “Muayyan narsalarning butunlay yo‘q bo‘lib ketishiga asoslangan ijara shartnomasi joiz bo‘lmaydi”²³.

Mulk qilib berish bilan tugatiladigan ijara shartnomasining nasiya savdodan afzalligi, ijaraga beruvchining huquqlari himoya qilinishida hamda mulk daxlsizligini ta‘minlashdagi ahamiyati bilan izohlanadi.

“*Burhoniddin Buxoriyning ijara asosidagi mehnat munosabatlariga oid kelishuvlarni tartiblashdagi uslubi*” deb nomlangan ikkinchi badda Burhoniddin Mahmud Buxoriy “Muhitul Burhoniy” asarida mehnat munosabatlari bilan bog‘liq ijara shartnomalariga alohida bob ajratib, ularni uch turga bo‘lgan va quyidagicha bayon qilgan:

1. Diniy vazifalarga oid ijara shartnomalari.
2. Shariatda taqiqlangan amallarga doir ijara shartnomalari.
3. Islomda muboh ishlar bilan bog‘liq ijara shartnomalari.

Diniy vazifalar deganda, islomga xos ibodat masalalari tushuniladi. Masalan, imomlik, muazzinlik qilish, Qur‘on, fiqh, hadis va boshqa ilmlarni o‘rgatish hamda haj va umra ibodatlarini ijara haqi evaziga bajarib berish shular jumlasidandir. Mazkur ibodatlar uxraviy (oxiratda savob berilishi umid qilinadigan) ish ekani, unga yollangan shaxs mazkur ishni bajarish asnosida o‘zi ham foyda olishi nazarda tutilgan. Shu bois, hanafiy mazhabi mutaqqaddim ulamolari hadislar va boshqa dalillarga asoslanib, ijara shartnomasi bilan bog‘liq umumiy qoidani ishlab chiqishgan. Unga ko‘ra, musulmonlarga xos ibodatlar xususida tuzilgan ijara shartnomasining hukmi botil²⁴, ya‘ni mazkur shartnoma huquqiy asosga ega emas. Mazkur qoida asosida islom dinida ibodat sanaladigan har qanday amalni bajarish uchun biror shaxsni yollash mumkin emas, degan xulosa chiqadi. Ammo keyingi asr ulamolari ilm o‘rgatish bilan bog‘liq ibodatlarini, shuningdek, shar‘iy asosga ega bo‘lgan haj, umra kabi ibodatlarini ijara haqi evaziga bajarishga ruxsat berishgan. Ayrim diniy vazifalar, jumladan, imomlik, muazzinlik kabilar ijara haqi asosida bajarishni joiz deb aytganlar. Bunga odamlarning ehtiyoji ortib borishi sabab bo‘lgan. Bu qoida islom huquqida barcha turdagi ibodatlariga nisbatan qo‘llanilmaydi. Faqatgina shar‘iy asosga ega bo‘lgan ibodatlariga nisbatan tadbiq etilgan.

Islom dinida taqiqlangan ishlar deganda shariatda gunoh sanalgan amallar tushuniladi. Islom huquqida biron narsaga taqiq qo‘yilishi o‘z-o‘zidan emas, balki odamlar hayotini muhofaza qilish, jamiyatdagi mavjud tartib-intizomni saqlash hamda umuminsoniy qoidalarga zid bo‘lgani uchundir. Islom huquqida umumiy qoida shuki, gunoh ishlar xususida tuzilgan ijara shartnomalari botil²⁵, ya‘ni

²³ Burhoniddin Mahmud Buxoriy. Muhitul Burhoniy. J.7. – Bayrut. Dorul kutubul ‘ilmiya. 2004.– B. 489.

²⁴ Shamsiddin Saraxsiy. Mabsut. J.15. – Bayrut: Dor al-ma‘rifa. 1989. – B. 74.; Burhoniddin Marg‘inoniy. Hidoya sharhi bidoyatul mubtadiy. J.6. – Madina: Dorus siroj. 2019. – B. 5.

²⁵ Burhoniddin Mahmud Buxoriy. Muhitul Burhoniy. J.7. – Bayrut. Dorul kutubul ‘ilmiya. 2004. – B. 482.

